



DIVIDEND SIYOSATINI TO'G'RI TANLASH ORQALI AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI YANADA RIVOJLANTRISH

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi
TDIU Moliya va buxgalteriya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolda aksiyadorlik jamiyatlrining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha omillar tahlil qilingan. Shuningdek, dividend siyosatini tanlashdagi mavjud kamchiliklar o'rganilgan hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyati, dividend stavkasi, muntazam dividend siyosati, barqaror dividend siyosati, qimmatli qog'ozlar.

Dividend aksiyadorlik jamiyati daromadidan aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylangan qismi sanaladi. Aslida dividend miqdori ko'proq aksiyalar soni va aksiyadorlar jamiyatining sof foydasiga juda ham bog'liqdir. Dividend har yili aksiyadorlarga korxonaning yillik daromadiga qarab taqsimlanadi. Taqsimlanadigan hissa dividend massasi, aksiyalar nominali qiymatlariga ko'ra foizlarda ifodalangan daromad esa dividend stavkasi deyiladi.

Qo'lida aksiyalarning asosiy hissasini to'plagan aksiyadorlar va korporatsiyalar dividendning eng ko'p qismini oladi. Dividend siyosati kompaniyaning eng muhim yo'nalishi bo'lib, u kompaniyaning aksiyalari narxiga bevosita ta'sir qiladi. Kompaniyaning rahbarlari kengashi foydani boshqarish, foydani aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash va kelajakda yaxshi investitsiya imkoniyatlaridan foydalanish uchun kompaniya hisobidan foydaning bir qismini saqlab qolish bo'yicha dividend siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bu siyosat muhim strategik siyosatlardan biri sifatida tan olingan. Dividend siyosati qanday miqdorda dividend to'lash kerakligini, dividendni qachon qaysi shaklda chiqarishni, kelajakda investitsiyalar uchun qachon va qancha ushlab turish muammolarini hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yildagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunining asosiy maqsadi ham aksiyadorlik jamiyatlarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, shuningdek aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. [1]

Kompaniyaning dividend siyosati kompaniya tomonidan o'z aksiyadorlariga to'lanadigan dividendlar miqdorini va dividend to'lash davriyligini belgilaydi. Agar kompaniya foyda ko'rsa, u bilan nima qilish kerakligi haqida qaror qabul qilishi kerak. Ular kompaniyadagi foydani saqlab qolishi yoki pulni aksiyadorlarga dividendlar shaklida taqsimlashi mumkin.

Chunki ba'zi moliyaviy tahlilchilar dividend siyosatini ko'rib chiqish ahamiyatsiz deb hisoblashadi. Sababi shuki, investorlar o'zlari dividendlarni yaratish imkoniyatiga ega. Bu tahlilchilarning ta'kidlashicha, daromad investorlar o'z portfellarida aktiv taqsimotini to'g'irlash orqali erishiladi.



Oddiygina misol qilib aytadigan bo'lsak, barqaror daromad oqimini qidirayotgan investorlar dividend to'laydigan aksiyalarga emas, balki foizlar to'lovlari o'zgarmaydigan obligatsiyalarga investitsiya qilishlari mumkin, bu yerda aksiyaning asosiy narxi o'zgarishi mumkin. Natijada obligatsiyalar investorlari ma'lum bir kompaniyaning dividend siyosati haqida qayg'urmaydilar, chunki ularning obligatsiya investitsiyalaridan foiz to'lovlari belgilangan.

Shuni aytish joizki, dividend siyosatiga nafaqat qarshi chiquvchilar emas, balki ularning tarafdorlari ham mavjud. Ta'rafdorlari shuni ko'rsatadiki, yuqori dividend to'lash investorlar uchun muhim, chunki dividendlar kompaniyaning moliyaviy farovonligiga ishonch hosil qiladi.

Barchamizga ma'lumki, doimiy dividendlar to'lagan kompaniyalar so'nggi bir necha o'n yilliklar ichida eng barqaror kompaniyalardan biri hisoblanadi. Natijada dividend to'laydigan kompaniyalar investorlarni jalb qiladi va ularning aksiyalariga talabni yaratadi. Dividendlar daromad olishni istagan investorlar uchun ham kerak. Lekin dividendlar taqsimotining kamayishi yoki ko'payishi qimmatli qog'ozlar narxiga ham ta'sir qiladi. Aksincha, bu to'lovlarni amalga oshirgan kompaniyalar o'zlarining aksiyalarida o'sishini ko'rishlari mumkin.

Endi muntazam dividend siyosatiga nazar soladigan bo'lsak, bunda kompaniya har yili o'z aksiyadorlariga dividendlar to'laydi. Agar kompaniya juda yuqori foyda olsa, ortiqcha foyda aksiyadorlarga taqsimlanmaydi. Lekin kompaniya tomonidan taqsimlanadigan foyda sifatida ushlab turiladi. Agar kompaniya zarar ko'rsa, aksiyadorlarga siyosat bo'yicha dividend to'lanadi. Bu dividend siyosati barqaror pul oqimi va daromadga ega kompaniyalar tomonidan qo'llaniladi. Dividendlarni shu tarzda to'laydigan kompaniyalar past riskli investitsiyalar hisoblanadi. [2]

Barqaror dividend siyosatida esa dividendlar to'lanadigan foydaning foizi belgilanadi. Misol uchun, agar kompaniya to'lov stavkasini 5% qilib belgilasa, bu moliyaviy yil uchun olingan foyda miqdoridan qat'iy nazar to'lanadigan foyda foizidir. Bunda kompaniya 1 million dollarni yoki 500 ming dollar ishlab topadimi, qat'iy belgilangan dividendlar to'lanadi. Bunday siyosatga amal qiladigan kompaniyaga sarmoya kiritish investorlar uchun juda ham xavfli sanaladi, chunki dividendlar miqdori foyda darajasiga qarab o'zgaradi.

Undan keyingi dividend siyosati bu noto'g'ri dividend siyosatidir. Bunda kompaniya o'z aksiyadorlariga to'lash majburiyatiga ega emas hamda direktorlar kengashi foyda bilan nima qilishini hal qilishi mumkin. Agar ma'lum bir yilda yaxshi foyda olsalar, uni aksiyadorlarga taqsimlash yoki umuman dividend to'lamaslik va o'rniga biznesni kengaytirish va kelajakdagi loyihalar uchun foydani saqlab qolishga qaror qilishi mumkin. Hamda eng so'nggi siyosat turi dividendsiz siyosatdir. Dividendsiz siyosatiga ko'ra, kompaniya aksiyadorlarga dividendlarni taqsimlamaydi. Sababi shundaki, olingan har qanday foyda saqlanib qoladi va kelajakdagi o'sish uchun biznesga qayta investitsiya qilinadi.

Dividendlar bermaydigan kompaniyalar doimiy ravishda o'sib boradi, kengayadi hamda aksiyadorlar ham ularga sarmoya kiritadilar, chunki kompaniya aksiyalarining qiymati oshadi. Investor uchun narxning oshishi dividend to'lashdan ko'ra qimmatroqdir.



“Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli Farmonining maqsadi ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, bo‘ljak investorlar uchun ularning ochiqqligi va jozibadorligini ta‘minlash, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratishdir.

Kompaniya o‘z aksiyadorlarga foydani qaytarishning ikkita usuli bor. Ularga pul dividendlari va aksiyalarni qaytarib olish kiradi. Qayta sotib olish bilan pul ko‘rinishidagi dividendni solishtirganda, dividendlarni to‘lash hajmi kichikroq bo‘lganligi sababli bu kompaniyaga katta miqdordagi naqd pullarni ushlab turish o‘rniga har chorakda konservativ kapitalizatsiya tuzilmasini saqlab qolish imkonini beradi. Qayta sotib olish kapitalni aksiyadorlarga qaytarishning soliqdan samaraliroq usuli sanaladi, chunki investor qaytarib sotib olish jarayonida qo‘shimcha soliqqa tortilmaydi. Soliq faqat aksiyalarni real sotishda qo‘llaniladi. Bu esa kompaniyaning rentabilligini yaxshilaydi va uzoq muddatda aksiyalari narxini oshirishi mumkin.

Aksiyalarni qaytarib sotib olish bu kompaniya o‘z aksiyadorlaridan o‘z aksiyalarini sotib oladigan va shu bilan kompaniyadagi muomaladagi aksiyalarning umumiy sonini kamaytiradi. Aksiyadorlarga taklif qilinadigan qaytarib sotib olish narxi odatda joriy bozor narxidan yuqori bo‘lib, bu ularni jarayonda ishtirok etishga undaydi. Qayta sotib olish, shuningdek, kompaniyaga balansda bo‘sh turgan ortiqcha pul mablag‘larini o‘z aksiyadorlariga o‘tkazish imkonini beradi.

Demak, har bir aksiyadorlik jamiyati dividend siyosatini to‘g‘ri tanlash orqali yuqori darajada foyda ko‘rishi mumkin, ya‘ni kelajakda:

- aksiyadorlik jamiyatining strategik rivojlanishini ta‘minlash;
- kompaniyaning bozor qiymatini maksimal darajada oshirish;
- aksiyalarning bozor qiymatini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni, 2014.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Korporativ boshqaruv kodeksi”, 2015.

3.“Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli Farmoni.